

“NODIR NE’MAT”

Hikmatilla Gadayev

**Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
katta ilmiy xodimi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14055854>

Annotatsiya: Ushbu “Nodir ne’mat” nomli maqolada tut daraxtini insonlar xayotiga kirib kelishi, tut daraxtidan yasalgan ilk asboblarning haqida gapiriladi. Bundan tashqari undan olinadigan xomashyo, mevasidan, ildizi dan, bargidan inson organizmi uchun foydali dori-darmonlar, sharbatlar, ipak qurtini boqilishi hamda, shoyi ipak matolar, shuningdek bu daraxtning bizga bergan ne’matlarini xalq og’zaki ijodiyotida namoyon bo’lishi haqida ma’lumot beradi va yoritadi.

Kalit so’zlar: Nodir, xazina, qoviq, keli, kelisop, chekich, urchuq, shinni, mo’tadil, shotut, Ibn Qutayba, afsona, avliyo, xosiyatli, dastgohlar, qonun, ud, mo’jiza.

Аннотация: В этом "редком благословении" говорится о появлении шелковичного дерева в жизни человека на самых ранних панелях инструментов, изготовленных из шелковицы. Кроме того, извлекаемое из него сырье, полезные для организма человека плоды, корни, листья, соки, используемые для кормления шелкопрядов, а также шелковые ткани, а также польза, которую дает нам это дерево, информируют и освещают проявление его в народном устном творчестве.

Ключевые слова: редкость, сокровище, кобик, кели, келисop, чекич, урчук, шинни, чудо, шотут, Ибн Кутайба, легенда, святой, своеобразие, станки, закон, қонун, уд-(муз INSTR) чудо.

Abstract: This "rare blessing" refers to the appearance of the mulberry tree in human life on the earliest instrument panels made of mulberry. In addition, the raw materials extracted from it, fruits useful for the human body, roots, leaves, juices used for feeding silkworms, as well as silk fabrics, as well as the benefits that this tree gives us, inform and illuminate its manifestation in folk oral art.

Keywords: rarity, treasure, kobik, keli, kelisop, chekich, urchuk, shinni, miracle, shotut, Ibn Kutaiba, legend, saint, originality, machines, law, konun, ud-(muz instr) miracle.

Yaratganning bandasiga tuhfa qilgan nodir ne’matlaridan biri – **tut** daraxti bizning va boshqa xalqlar olimlari tomonidan o’rganilgan va bu jarayon hamon davom etmoqda. Tut daraxti paydo bo’lgandan buyon jamiki tirik jonga, insonlarga misoli sehrli buloqday beminnat xizmat qilib kelayotir. Insoniyatning madaniy hayoti rivojlangani sayin, jahon tabobati, hunarmandchilik, ipakchilik, sozgarlik, qandolatchilik, dexqonchilik, binokorlik, sanoat va boshqa sohalarda ham uning bebaho qadrini yaqqol ko’ramiz. Shu bois ko’p sohalarning tadqiqotchilari o’z ilmiy izlanishlarida tutning yangidan yangi foydali tomonlarini, xususiyatlarini o’rganib, xalqqa havola etmoqda. Odamzot yaralgandan buyon qancha zamonlarni bosib o’tgan bo’lsa, ildizidan to bargigacha koni foyda bo’lgan ushbu “qut-baraka”, “mo’jiza” yoki “xazina” daraxti insondan kam yo’lni bosib o’tmadi. Sekin-asta odamlar hayotiga kirib, u bilan chambarchas bog’lanib ketdi. Ilm-fan, iqtisod, madaniyat taraqqiyotida ham, xattoki, xalq og’zaki ijodida ham sarmazmun mavqeni egalladi. Qadimdanoq insonlar yaxshi yashash uchun intilishi, izlanishi ortidan o’z tafakkurini boyitib, tut daraxti tanasidan ov qurollari, ish qurollari, keli, kelisop, chekich, g’alvir gardishi, beshik, egar, to’quvchilik

dastgohlari, urchuq, taroq va boshqa narsalar yasagan. Qavig'idan ham pishiq ip, eng sifatli qog'oz, bo'yoq, bargi esa chorvaga ham, ipak qurtiga ham ozuqa, ildizi, bargi mevalari tabobatda dori, tanasi yoki novdalari binokorlikda ishlatilgan.

Tut daraxtining yer yuzida tarqalgan navlari asosan Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqalari, Hindiston, Afrika va Shimoliy Amerikaning mo'tadil va subtropik hududlarida ko'p uchrase aytildi. Uning 20 dan ortiq turi mavjud bo'lib, ko'p navlari Xitoyda o'sadi. Oq tutning vatani -Xitoy, shotutning vatani- Eron va Afg'oniston hisoblanadi. O'zbekistonda ham tutning beshdan ortiq turi yetishtiriladi. Tutning xususiyatlaridan oldin yurtimizdagi eng keksa tut daraxtlariga to'xtalsak:

Yarim asrlik tarixdan so'zlaguvchi 37 tup yoshi ulug' tut daraxtlari Zomin tumanidagi Turkman qishlog'ida asrlar silsilasidan o'tgan. Ularning 9 tasi 500 yosh, 28 tasi esa 200 va undan ortiq yoshga kirgani taxmin qilinmoqda. Ushbu daraxtlarni kim ekanligi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Lekin ular nafaqat qishloq ahlining, balki, butun xalqimizning fahriga aylangani bor gap. Jizzax viloyati ekologiya va atrof muhit muhofazasi boshqarmasi xodimlari hamda O'zbekiston Ekologik partiyasining Jizzax viloyati kengashi a'zolari hamkorlikda qishloqning eng yoshi ulug' nuroniy otaxonlari va mahalla faollari viloyatda 112 tup shunday yoshi katta daraxtlar borligini aniqladi. Ularning 82 tupi tut, 23 tupi yong'oq, 4 tupi chinor, 2 tupi tol va 1 tupi biota daraxti ekan.

Navbatdagi Samarqand viloyati, Samarqand tumanidagi "Mironqul" mahallasining tog'li hududida yoshi asrlarga bo'ylashgan tut daraxtining ham yoshi qariyb 450-yilga tengligi taxmin qilinmoqda. Andijon viloyatining Jalaquduq tumanidagi Ibn Qutayba ziyoratgohidagi tutni 1000 yoshligi aytilmoqda. Mahalliy hokimiyat davlat organlarining qarori bilan ushbu daraxtlar "Davlat tabiat yodgorligi" deb e'lon qilinib, bu borada yana izlanishlarning davomi cheksiz.

Olimlarimiz tomonidan bildirilishicha tut (Morus) – tutdoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumiga kirgan mevali daraxt hisoblanadi; Oq tut (M.alba) va qora tutning (M.migra) mevasi iste'mol qilinadi. Sershox tut (M.multicaulis), kagayama tut (M.Kagayame) va ipak qurti tuti (M.bonabycis) turlaridan, asosan, ipak kurti boqishda foydalaniladi. Tut tez o'suvchan, qurg'oqchilik va sovuqqa chidamli, shox-shabbasi zich, keng yumaloq, oval va piramida shaklida bo'lishi mumkin. Bo'yi 15-18 metr, ba'zilariniki 20-25 metrgacha, yo'g'onligi 1,5 metrgacha bo'ladi. Katta yoshdagi baland tanali tut daraxtlaridan 20-40 kilogrammgacha barg, 50-60 kilogramm meva hosili olinadi. Tutning egri-bugri (ilono't) va pastga qarab o'sadigan (majnun tut) xillari ham uchraydi. Hayratlanarlisi tut daraxti 300, ayrimlari 500-yilgacha yashaydi. Oq tut (Balxi tut) va shotut mevasi shirin, shifobaxsh, har xil vitaminlarga boy bo'lib, yangiligida iste'mol qilinadi. Undan shinni, murabbo, mayiz, tayyorlanadi. Bargidan ipak qurti boqishda foydalaniladi. Tut ikki uyli o'simlik. Gullari bir jinsli. Tut urug'idan, qalamchasidan, payvand va parxish (parxama) usulida ko'paytiriladi. ("O'zME" dan).

Ushbu barakali tut daraxtning, asosan, ikki xil turi, oq tut va shotut -iste'molga yaroqli hisoblanadi. (Shotutni qora tut deb ham atashadi.)

Tutning mevasi to'liq pishib yetilgach, sershira, yangi uzilgan holda yoki quritilgan (tut mayizi) holida iste'mol qilinadi. Yana tutdan turli xildagi pishiriqlar, murabbo va marmeladlar, qiyom, shinni tayyorlanib, dasturhonimizni obod qiladi.

Tut mevasi sersuv, uning tarkibida 82,9-86,2 % gacha suv bor. Bundan tashqari, u sershira meva 10,9-12,7 % gacha qand miqdori mavjud. Tutning mevasi quritib, iste'mol qilinsa, shirasi yanada ko'payadi. Tut mayizida qand miqdori 73,29-83,71 % ini tashkil etadi. Boz ustiga tut

mevasi V, S, E, K, RR vitaminlariga boy. Shunga ko'ra, uni kasallikdan zaiflashib qolgan, tez-tez shamollaydigan kishilarga iste'mol qilib turishlari tavsiya etiladi. Mineral moddalardan esa kaliy, natriy, rux, selen, mis, fosfor, kalsiy, magniy, temirga boy, urug'i 24-33 foizgacha yog' va boshqa oshlovchi moddalarni o'zida saqlaydi. Tarkibida ko'p miqdorda fosfor saqlagani bois, tut aqliy faoliyat bilan shug'ullanadigan kishilar uchun koni foyda sanaladi. Homilador ayollar uchun ham tut mevasi homilaning yaxshi rivojlanishi uchun kerakli darmondorilar manbai hisoblanadi. Tut mevasi insonning immun tizimni kuchaytirib, organizmni yuqumli kasalliklarga qarshi himoya tizimini mustahkamlaydi, teriga barvaqt ajin tushishining oldini oladi, ko'rish qobiliyatini yaxshilab, ko'z to'rpardasining zararlanishi kabi kasalliklardan asraydi. Tut bargi va tanasining po'stlog'i ham turli biologik faol moddalar ko'p. Bargi tarkibida flavonoidlar, vitaminlar, karotin, efir moyi, organik kislotalar, po'stlog'ida esa bo'yoqli va oshlovchi moddalar, turli xildagi kislotalar mavjudligi aniqlangan. O'lkamizda qadimdan xalq tabobatida tutdan turli kasalliklarni davolashda keng foydalanilgan. Qonni tozalashda, qonni ko'paytirishda tut shirasi, bargining qaynatmasi esa angina va boshqa shamollash kasalliklarida isitmani tushiruvchi, chanqoqni qondiruvchi vosita sifatida qo'llanilgan.

Bobomiz Abu Ali Ibn Sino tutdan shifobaxsh vosita sifatida, tut, tok va qora anjirning barglarini yomg'ir suvida qaynatib ishlatilsa, sochni qoraytirishini, oq tut bargi tomoq og'rig'ini, yangi uzilgan barg shirasi tish og'rig'ini, tut mevasi va uning shirasi og'iz va tomoqdagi shishlarni davolashini misol qilib keltiradi. Ichburug' kasalligini davolashda tuzlab quritilgan tutdan, buyrak, yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda ham tut mevasi tanani ortiqcha suyuqlikdan tozalovchi, peshob haydovchi vosita hisoblanadi. Tut mevasini ovqatlanishdan oldin iste'mol qilinsa, oshqozonga uning zarari tegmaydi.

Tut mevasining quritilganidan tayyorlangan damlama, sharbat darmonsizlikni davolaydi, ozishga yordam beradi, organizmni tozalaydi. Qish oylarida tut daraxtining kurtagini olib, tozalab, damlamasini ichib yurish, yurakning quvvatini oshiradi. Tut daraxti gullari o'simlik yog'i bilan aralashtirilib, qorong'i joyda tindirilsa, teridagi mayda husnbuzar, dog'lar va sepkilni davolash uchun ajoyib krem hosil bo'ladi. Tanadagi eski yara va shikastlangan joylarni davolashda tut bargi va shoxchasini maydalab, o'simlik yog'i bilan aralashtirib surtilsa, yaralar tez bitadi, yaraning o'rnida iz qolmaydi. Tutning oziqaviy qiymati 70 kkal tengligi aytiladi. Nafas yo'llari kasalligi, yurak xastaliklari, revmatizm, surunkali yo'tal, pnevmaniya va bronxit, teri kuyishi, stomatit, tomoq va yara kaslliklari, qon bosimi va qon aylanishi kasalliklarining barchasiga tut daraxtida davo bor. Bir so'z bilan aytganda xalq tabobatida tutning ildizidan tortib mevasi, bargi, novdasi odam organizmidagi ko'p kasalliklarga davo ekanligi o'z isbotini topgan.

Tut daraxtining xalq hunarmandchiligining rivojiga qo'shgan hissasida ipakchilikni misol keltirmaslikni iloji yo'q. O'lkamizda qadimdanoq qo'shni va olis yurtlar bilan savdo aloqalarining yo'lga qo'yilishi hunarmandchilikni rivojlanishiga ham beqiyos ta'sir ko'rsatgan. Qadimiy manbalarda ipak qurti ta'rifi chindan ham ulug'lanadi. Hazrati Navoiy bobomizning ushbu so'zlari esa ipak qurtining nechog'li qadrli ekanini anglatadi.

' yerga tushib, chechak bo'ldi,
Qurt jondan kechib, ipak bo'ldi,
Lola tuxumichalik g'ayrating yo'qmi?
Ipak qurtichalik himmating yo'qmi?

Xitoy shoyilari dunyo bozorini lol qoldirgan bo'lsa, asta-sekin bizning shoyi matolarimiz, atlaslarimiz ham jahon bozorida o'z o'rnini egallagan. Shoyi atlas xaqida gap ketganda go'zal Marg'ilon shahri esga olinadi. Marg'ilon – hunarmandlar o'lkasi. Bu go'shaning yoshu qarisi biror hunar bilan shug'ullanadi. Shahar "Buyuk ipak yo'li" da joylashganligi uchun qadimdanoq savdo karvonlari qo'nib o'tadigan joy bo'lgan. Marg'ilon deyilganda odamlarning ko'z o'ngiga rang-barang naqshlar bilan bezalgan, kamalakdek serjilo atlas va adras matolari keladi.

Marg'ilondagi Said Ahmad Xo'ja eshon madrasasi madaniy meros obyekti hisoblanadi. 2007-yili bu yerda Hunarmandchilikni rivojlantirish markazi tashkil etilgan. Bu markazga bugungi kunda taniqli ustazoda hunarmand Rasuljon Mirzaahmedov rahbarlik qilmoqda. 2017-yili markaz Yunesko tomonidan madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan. Bunday markazlar Osiyo, Tinch okeani mintaqasida Xitoy, Indoneziya va O'zbekistonda bor xolos. Usta-hunarmand Rasuljon Mirzaahmedov atlas, adras to'qish texnologiyasini Afg'oniston, Qirg'iziston va Amerikada bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda ham ko'rsatib keldi. Rasuljon akaning otasi Marg'ilonning katta ustasi Turg'unboy Mirzaxmedov, muzeylarda nusxalarni o'rganib, atlas, adras va shoyi matolarini qayta tiklash bilan shug'ullangan. Bugungi kunda ushbu sexda yuz foiz tabiiy ipak va ipdan adras, atlas va shoyi matosi to'qilmoqda. 2022-yil Marg'ilon shahriga dunyo hunarmandlari kengashi tomonidan xalqaro hunarmandlar shahri maqomi berildi. Marg'ilon tarixi muzeyida alohida shu atlas, adrasga bag'ishlangan ko'rgazma tashkil qilingan. Asosan Mirzaahmedovlar oilasi, bobosi tomonidan qayta ishlangan eski, qadimgi nusxalarning asli, qadimda to'quvchilar ishlatgan dastgohlar, anjomlar qo'yilgan. Rasuljon Mirzaahmedov alohida atlas, adras, to'qimachilikka bag'ishlangan muzey qilib, avlodlarga qoldirishga bel bog'lagan.

Endi atlasga to'xtalamiz. atlas o'zi qanday mato? **Atlas** (arabcha -tekis, silliq) – tanda ipi ham, arqoni ham tabiiy ipakdan to'qiladigan bir yuzlama silliq mato. Tanda ipi abrbandi usulida bo'yab bezatiladi va alohida ishlov ortidan atlasga jilo beriladi, uning o'zgachaligi ham shundan. Avvallari mato yuziga kudung urilgan, endilikda, atlas issiq sathli baraban – kalandrdan o'tkaziladi. Bizning atlaslar rang-barang nafis gullarga boy, ularning uyg'unligi matoda yaxlit go'zal bir naqshni hosil qiladi. Atlasning tabiiy ipakdan to'qilgan eng a'lo navi sakkiz tepkili xonatlas deb ataladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilishi va to'qilish usulidadir. Atlasning to'qilish jarayoni: to'rt tepkili atlas to'rt tepkili dastgohda, sakkiz tepkili atlas sakkiz tepkili dastgohda to'qiladi. Yurtimizda tayyorlangan atlaslar respublikamizdan tashqari xorijiy mamlakatlarga ham chiqarilmoqda. 1967-yilda Monreal (Kanada)da o'tkazilgan Xalqaro ko'rgazmada, 1978-yilda Yugoslaviyaning Zagreb shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro yarmarkada xonatlas Oltin medal bilan mukofotlandi. Toshkent Modellar uyida xonatlasdan tiqilgan tayyor kiyimlar 1970-yilda Yaponiya (Osako)da, 1987-yilda Budapesht kuzgi yarmarkasida, 1988-yilda Bag'dodda, 1989-yilda Hindiston (Dehli) da bo'lib o'tgan Xalqaro yarmarkalarda, AQSHning Vashington (1998) va Chikago (1999) shaharlarida namoyish etildi.

AYOLLAR LIBOSLARI, ko'rpa, ko'rpachalar, erkaklar qiyiqchasi va boshqa buyumlar tayyorlanadigan bu bebaho atlas – "Qora atlas", "Bargi karam", "Chaqirim", "Yahudiy nusxa", "Nomozshomgul", "Shaxmat", "Qora ko'zim" va boshqa nomlar bilan ataladi. Yana ipak tolaga qaytsak, sanoatda harbiylarimiz uchun parashyut ham ipak matodan tayyorlanadi.

Turkiy xalqlarda ham boshqa xalqlar folklorshunosligi qatori daraxt obrazining badiiy tarqqiyot xususiyatlari, genezisi, xalq asarlaridagi poetik talqinlari va vazifalari tarixiy hamda ritual-mifologik maktab barcha xalqlar folklorida milliy dunyoqarashdan kelib chiqib talqin

etilishi kuzatiladi. Shuning uchun har bir xalq ijodida daraxt obrazining tarixiy-tadrijiy talqin xususiyatlarini ochish, mifologik asoslarini yoritish, dolzarb masalalardan biri hisoblanadi

Tut daraxtining Nomoddiy madaniy merosimizda xalq og'zaki ijodi tomonidan ham o'z o'rnini bor. Bunga bolalikda eshitgan ertagu-afsonalarimizda, dostonlarimizda rivoyat va maqollarimizda ko'p uchratishimiz mumkin. Xalqimizda tut daraxti bilan bog'liq afsonalar ko'plab yaratilgan bo'lib, ularning aksariyatida tutning biror aziz avliyo hassasidan ko'karib unib chiqishi, zum o'tmay ulkan daraxtga aylanishi motivlari, ya'ni, "Yakkatut buva" afsonasini ko'rsatishimiz mumkin. Shuningdek, bu an'anaviy motivga Bahouddin Naqshband nomi bilan bog'liq afsonalarda duch kelish mumkin. Unda aytilishicha, Bahouddin Naqshband ziyoratgohida saqlanayotgan katta tut yog'ochi bir vaqtlar aziz avliyoning yerga suqib qo'yilgan hassasidan unib chiqqan daraxt ekan.

Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida Kuyik, "tut" degan avliyo joy bor. Ana shu joy nomining kelib chiqishi to'g'risidagi afsonada hikoya qilinishicha, Qoraxon eshon buva degan kishi daryodan qo'lini yuvib turgan ekan, suv betida bir yog'i kuyik kosov oqib kelayotganini ko'rib qolibdi. Eshon buva kosovni suvdan olib daryo bo'yiga suqib qo'yibdi. Xudoning amri bilan kosov barglab, katta tut daraxti o'sib chiqibdi. Lekin o'sha kosovning bir uchi kuyik bo'lganligi sababli bu tut o'sib turgan bo'lsa-da, uning ichi kuyib, qop-qorayib ketibdi. Zamonlar o'tib, o'sha tut daraxti o'sgan makon ziyoratgohga aylanibdi. Boshqa afsonada yovdan qochib, avliyo tutgan iltijo qilibdi, tut ikkiga ajralib, uni yashiribdi. Tutga qo'nib turgan olashaqshaq dushmanga uni sotibdi. Yov bir oz uchi qisilib qolgan yaktagidan tortib chiqara olmay tutni yarim belidan aralashibdi. Kesilgan tut ag'darilib ikkiga bo'linib, orasidan qon chiqibdi. Shu-shu qachonkim tut kesilsa, tanasidan qizil suyuqlik oqib turarkan.

"Tut shirasi" nomli afsonaga ko'ra, dushmanlaridan qochib borayotgan bir avliyo tut daraxti yoniga kelganida Xudoga yolboribdi. Shunda Xudoning amri bilan tut yorilib, avliyo uning ichiga kirib ketgan ekan. Tut tanasidan gohida sizib chiqadigan qizg'ish rangli suyuqlik va shira ana o'sha avliyoning qonli ko'z yoshlari deyiladi. Yana bir afsonada "Tut daraxtining xosiyati" haqida hikoya qilinadi. "Qadim zamonda, Surxon vohasi tomonida bir podshoh me'morlariga yangi yerda o'ziga saroy qurdirishni buyuribdi. Me'morlar tez fursatda tinmay mehnat qilib, shohning amrini bajarishibdi. Saroy qurilishi yakuniga yetibdi, ammo biroz vaqtdan so'ng, imorat poydevoridan nurashni boshlabdi. Shoh saroyini qayta qurishga farmon beribdi, yana shu xol takrorlanibdi. Quruvchilar saroyini yanada mustahkamroq qilib qursada, yana saroy nuray boshlabdi. Ular qo'rqib turganlarida bir donishmand chol kelib, me'morlarga qurilishdan oldin saroy atrofiga tut ekishni maslahat beribdi. Bu safar bino nuramabdi. Donishmandan sababi so'ralganda: "Tut daraxtining ildizlari mustahkam bo'lib, aynan sho'rni, va sizot suvlarni o'ziga tortadi", – deb javob beribdi chol. Podshoh esa uning donishmandligiga tasannolar aytibdi. Macjit va minoralar, imoratlar yaqinida tut ekish odati shundan saqlanib qolgan ekan". Ipak tayyorlangan matolar va tutdan daraxtidan yasalgan sozlarni halq qo'shiqlarida juda go'zal tarzda ulug'lanadi.

Ipak ro'mol boshingda hilpillaydi,

Choy ichganda yuraging kilkillaydi.

Olib ber deb otamga aytolmayman.

Til tagida ko'makday bilqillaydi.

Yoki

Boshimda ipak ro'molim, yanog'imda birdona xol,

manim jamolim, yorim bor labzi halol.

Ko'ylagim girim, girim, girimga yetmaydi puli

Girimga yetmasa pulim, bu dunyoda ko'nglim yarim.

Yalo, yalo yalo, yalo demasmano,

atlas ko'ylak obermasang yorim demasman.

Yana,

Muhayyo, Curayyo, Ra'no muqaddas,

Ko'zimni kuydurib kiyibsiz atlas.

Yana

Do'ppi tikdim ipaklari tillodan,

Demak uning zarlari ham tillodan.

Daryo toshqin

Daryolarning ul yuzida uyloringizey,

Oqarishib ko'rinadi bo'yloringizey.

Ipdanmidi, ipakmidi kiygoningizey?

Bizlardan ham ortiqmidi suygoningizey?

Yoki ko'hna qo'shiqlardan biri "Jinaynik" da shunday so'zlar bor,

Alvon ko'ylak etagiga, tut qoqaylik, jinaynik.

Dushmanlarning bag'riga o't yqaylik, jinaynik.

Ushbu xalq qo'shiqlarida ipakni nafis, mayin va uning rangli jilosi yorning chiroyi, go'zalligi, ibo-hayosi bilan qo'shib kuylansa, tut tanasidan yasalgan milliy sozlarda ham o'zgacha bog'liqlikni anglaymiz.

Doira do'm-do'ma, bahori mavsuma,

Kelsa bahor gullar terib, qilar tabassuma.

Doirangni qasqoni, ipi bormi osgani?

Yoshligingda o'ynab qol, yoring bormi to'sgoni?

Kuyla dilkash, kuyla dilkash dutorim,

Tinglab orom olsun suyukli yorim.

Ishq sadosi bo'lib yangra tilimda

Humorim yoz humorim yoz, humorim.

Yana do'mbira to'g'risida, dutor, tanbur, nay, g'ijjak, surnay to'g'risida aytilgan xalq va xalqona qo'shiqlarni ko'plab misol qilib keltirishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda, tut daraxti – xalq og'zaki ijodida insonning tabiat bilan qanchalar uyg'unligini bildirib, farzandlariga bor mehrini berayotgan onaday ifodalanadi.

Boshqa sohalarda ham tut daraxtining insoniyatga bergan beminnat hizmatini sezmay iloji yo'q. Ajdodlarimiz beshiklarni, keli-kelisop, to'quv dastgohlarini, elak, urchuq, taroq kabi xo'jalik anjomlarini, yovvoyi otlarni qo'lga o'rgatib, undan foydalanishni yo'lga qo'yganlarida uning egarini tutdan yasashgan.

Yana bu sehrli daraxtning Nomoddiy madaniy merosga qo'shgan eng katta hissasi, Turkiy dunyo va osiyo xalqlarining eng zo'r cholg'u sozlarini ham tutdan yasalishidir. Tor, Rubob, Dutor, Tanbur, Doira, Nay, G'ijjak, Surnay, Ud, Turk sozi, Qonun, Chang, Do'mbira va boshqalarni misol qilishimiz mumkin (o'rik, yong'oq, nokdan ham yasalsoqda) Hunarmandchilikning "Sozgarlik" yo'nalishi san'at darajasiga ko'tarildi va cholg'u san'atini, musiqa sabog'ini rivojini ko'klarga ko'tardi. Tut daraxtidan yaratilgan ldstgohlar, sozlar, buyumlarning har-biri o'zi bir

asar. Allohning mo'jizasini qarang, "Tut tanasidan yaralgan (dutor) cholg'u uning bargidan ozuqlangan ipak qurti eshgan ipakdan eshilgan torlarini yana bag'riga olib, sozanda qo'lida ajib ohanglar bilan ko'ngillarni hushnud aylarkan".

References:

1. Jaloliddin Nuriddinov 27-may 2016-yil " Tut mevalarining xossalari"
2. Dori Darmon Aksiyadorlik Kompaniyasi 12 May 2020 g., 08:43
3. TUTNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI https://t.me/doridarmon_ak telegram kanali O'zbekiston nomoddiy madamiy merosi Ichkap 2017 Motxi 2017 YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi 2017
4. "O'zbek xalq cholg'ulari ijrochilik san'ati tarixi" Lutfullayev. O'zbek davlat konservatoriyasining "Musika nashriyoti" 2006.